



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 166 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruhiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сеитова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'g'arak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloyevna</i>	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHNING ZARURATI

Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti

Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning ilmiy-nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Xalqaro baholash dasturlarining (PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, ICCS va TALIS) ta'lim sifatini baholashdagi o'rni, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan metodologik xususiyatlari hamda ularni O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur dasturlar bilan ishlash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, funksional savodxonlikni shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, ICCS, TALIS, funksional savodxonlik, kasbiy kompetensiya.

Abstract: This article examines the scientific, theoretical, and methodological foundations for preparing prospective primary school teachers to work with international educational assessment programs. It analyzes the role of international assessment programs (PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, ICCS, and TALIS) in evaluating the quality of education, their methodological characteristics based on the competency-based approach, and the prospects for their implementation in the education system of the Republic of Uzbekistan. The study also highlights the significance of these assessment programs in developing the professional competencies of prospective primary school teachers, fostering functional literacy, and improving the overall quality of education.

Key words: prospective primary school teacher, international educational assessment programs, PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, ICCS, TALIS, functional literacy, professional competence.

Аннотация: В данной статье раскрыты научно-теоретические и методические основы подготовки будущих учителей начальных классов к работе с международными программами оценки качества образования. Проанализированы роль международных программ оценки (PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, ICCS и TALIS) в оценке качества образования, их методологические особенности, основанные на компетентностном подходе, а также перспективы их внедрения в систему образования Республики Узбекистан. Особое внимание уделено значению данных программ в развитии профессиональных компетенций будущих педагогов, формировании функциональной грамотности и повышении качества образования.

Ключевые слова: будущий учитель начальных классов, международные программы оценки качества образования, PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, ICCS, TALIS, функциональная грамотность, профессиональная компетентность.

KIRISH

Dunyoda raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim sifati davlatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlaniishi, inson kapitalini yuksaltirish hamda xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli ta'lim natijalarini xalqaro mezonlar asosida baholash, milliy ta'lim tizimining samaradorligini qiyosiy tahlil qilish hamda o'quvchilarning XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlariga aylandi. Ayniqsa, ta'lim natijalarini obyektiv baholashga asoslangan xalqaro monitoring tadqiqotlari ta'lim siyosatini takomillashtirish, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish hamda pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi^[7].

Xalqaro baholash dasturlari turli mamlakatlarda ta'lim sifati va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini yagona metodologiya hamda standartlashtirilgan baholash vositalari asosida aniqlashga xizmat qiluvchi xalqaro monitoring tadqiqotlaridir^[1, B. 14].



Mazkur tadqiqotlarning asosiy farqli jihati shundaki, ular o'quvchilarning faktik bilimlarini emas, balki egallangan bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash, muammolarni hal qilish, tanqidiy va mantiqiy fikrlash, axborotni tahlil qilish hamda asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarini baholashga yo'naltirilgan [6].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy manbalarda xalqaro baholash dasturlari ta'lim tizimining holatini diagnostika qilish, mamlakatlar o'rtasidagi natijalarni qiyoslash hamda ta'lim siyosatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ishonchli empirik ma'lumotlar bazasi sifatida tavsiflanadi [7]. Mazkur dasturlar orqali olingan natijalar davlatlarga ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash, ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilash hamda o'qitish metodikasini takomillashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda keng qo'llanilayotgan baholash dasturlari qatoriga PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study), ICILS (International Computer and Information Literacy Study), ICCS (International Civic and Citizenship Education Study) hamda TALIS (Teaching and Learning International Survey) kiradi. Mazkur dasturlar baholash obyekti, metodologiyasi va maqsadlariga ko'ra bir-biridan farq qilsa-da, ularni umumlashtirib turuvchi asosiy tamoyil kompetensiyaga yo'naltirilgan baholash hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval: Xalqaro baholash dasturlarining umumiy tavsifi

Dastur	Tashkilot	Baholash obyekti	Davriyligi
PISA	OECD	15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha funksional savodxonligi	Har 3 yilda
PIRLS	IEA	4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi	Har 5 yilda
TIMSS	IEA	4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika hamda tabiiy fanlar bo'yicha tayyorgarligi	Har 4 yilda
ICILS	IEA	Kompyuter va axborot savodxonligi	Har 5 yilda
ICCS	IEA	Fuqarolik va huquqiy kompetensiyalar	Har 7 yilda
TALIS	OECD	O'qituvchilar va maktab rahbarlarining kasbiy faoliyati	Har 5 yilda

Mazkur dasturlarni tahlil qilish ularning bir qator umumiy metodologik xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, ular kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi, bilimlarning amaliy qo'llanilishini baholaydi, standartlashtirilgan topshiriqlar va baholash mezonlaridan foydalanadi, natijalarni xalqaro miqyosda qiyoslash imkonini yaratadi hamda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Aynan shu jihatlar xalqaro baholash dasturlarini an'anaviy nazorat tizimidan ajratib turadi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish hamda xalqaro baholash tadqiqotlarida samarali ishtirok etishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatning PISA 2022 tadqiqotida ilk bor ishtirok etishi milliy ta'lim tizimini xalqaro mezonlar asosida baholash imkonini yaratdi. OECD tomonidan e'lon qilingan natijalar o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha tayyorgarlik darajasini aniqlash bilan bir qatorda, ta'lim tizimining kuchli hamda rivojlantirilishi zarur bo'lgan jihatlarini ham ko'rsatib berdi [7].

Xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, funksional savodxonlikni rivojlantirish maktabning yuqori bosqichlarida emas, balki boshlang'ich ta'limdan boshlab izchil tashkil etilishi lozim. Chunki o'qish savodxonligi, matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, muammolarni hal etish va kommunikativ kompetensiyalar aynan boshlang'ich sinf davrida shakllanadi. Mazkur kompetensiyalar keyingi ta'lim bosqichlarida PISA, TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishning metodologik asosini tashkil etadi [2].

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi faqat o'quv dasturi mazmunini yetkazuvchi mutaxassis emas, balki o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantiruvchi, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratuvchi hamda zamonaviy baholash texnologiyalarini qo'llay oladigan pedagog sifatida tayyorlanishi zarur. Bu esa pedagogik oliy ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, metodologiyasi, topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari bilan ishlashga maqsadli tayyorlashni taqozo etadi.



Biroq pedagogik oliy ta'lim amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro baholash dasturlariga oid bilimlar ko'pincha ayrim mavzular doirasida yoritilib, ularni kasbiy kompetensiyalar bilan integratsiyalashgan holda shakllantirish masalasi yetarli darajada ilmiy-metodik asoslanmagan. Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida xalqaro baholash topshiriqlarini loyihalash, natijalarni tahlil qilish, funksional savodxonlikni rivojlantirish hamda zamonaviy baholash texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha amaliy tayyorgarlik yetarli darajada shakllanmayapti.

Mazkur holat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning mazmuni, metodlari va tashkiliy mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois ushbu maqolaning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurligini asoslash, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi kasbiy kompetensiyalar va metodik yondashuvlarni ilmiy jihatdan yoritishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlarini samarali joriy etish, avvalo, pedagoglarning mazkur dasturlar mazmuni, baholash metodologiyasi va kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq eta olish darajasiga bog'liq. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorgarlik darajasini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [5].

Pedagogik oliy ta'lim muassasalari amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalar PISA, PIRLS va TIMSS dasturlarining umumiy mazmuni haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lsalar-da, mazkur dasturlarning metodologik asoslarini dars jarayoniga integratsiyalash, kompetensiyaviy topshiriqlarni ishlab chiqish hamda baholash natijalarini pedagogik tahlil qilish bo'yicha yetarli amaliy tayyorgarlikka ega emaslar. Bu holat nazariy bilimlar bilan amaliy kompetensiyalar o'rtasida muayyan tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur holatni aniqlash maqsadida Samarqand davlat pedagogika institutining 118 nafar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilgan diagnostik tadqiqot natijalari quyidagi ko'rinishni oldi (2-jadval).

2-jadval: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining xalqaro baholash dasturlari bo'yicha tayyorgarlik darajasi (%)

Ko'rsatkich	Yuqori	O'rta	Past
PISA, PIRLS va TIMSS mazmunini bilish	36	47	35
Baholash mezonlarini tushunish	15	24	79
Kompetensiyaviy topshiriqlar tuzish	29	38	51
Natijalarni pedagogik tahlil qilish	27	31	60
Raqamli baholash vositalaridan foydalanish	32	40	46

Jadval natijalari xalqaro baholash dasturlari bo'yicha nazariy bilimlarning nisbatan shakllanganligini, biroq amaliy kompetensiyalarning rivojlanish darajasi talab etilgan ko'rsatkichlardan past ekanligini ko'rsatadi. Xususan, respondentlarning **70,3 %**i PISA, PIRLS va TIMSS dasturlarining mazmuni haqida ma'lum bilim ega bo'lsa-da, baholash mezonlarini tushunish darajasi **33 %**ni tashkil etdi. Kompetensiyaviy topshiriqlarni ishlab chiqish ko'rsatkichi 56,7 %, baholash natijalarini pedagogik tahlil qilish 49,1 %, raqamli baholash vositalaridan foydalanish esa **61 %**ni tashkil etishi kuzatildi. Bu esa pedagogik tayyorgarlikda nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari, shuningdek, talabalarda raqamli baholash vositalaridan foydalanish ko'nikmalari ham yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda xalqaro baholash tadqiqotlarining aksariyati kompyuter asosida tashkil etilayotganligi hisobga olinsa, raqamli kompetensiyani rivojlantirish pedagogik ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim [7].

Olingan natijalar xalqaro baholash dasturlariga oid bilimlarni alohida mavzu sifatida o'qitishning o'zi yetarli emasligini, aksincha, ularni kasbiy faoliyat bilan uzviy bog'langan kompetensiyalar orqali shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayyorgarligini kompetensiyaviy model asosida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xalqaro baholash dasturlarining metodologik xususiyati o'qituvchidan faqat fan mazmunini chuqur bilishni emas, balki o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish, baholash natijalarini tahlil qilish hamda ularni ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirishga xizmat qiluvchi kompleks kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishni ham talab etadi.



OECD va IEA tomonidan ishlab chiqilgan baholash konsepsiyalari, shuningdek, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlar tahlili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shakllantirilishi zarur bo'lgan kompetensiyalar tizimlashtirildi ^[4] (3-jadval).

3-jadval: **Xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash uchun zarur kasbiy kompetensiyalar**

Kompetensiya	Mazmuni
Metodik kompetensiya	Xalqaro baholash talablariga mos topshiriqlarni loyihalash va dars jarayoniga integratsiyalash
Diagnostik kompetensiya	O'quvchilarning funksional savodxonligini baholash va natijalarni tahlil qilish
Analitik kompetensiya	Baholash natijalari asosida pedagogik xulosalar chiqarish
Raqamli kompetensiya	Elektron baholash platformalari va raqamli resurslardan foydalanish
Tadqiqotchilik kompetensiyasi	Baholash natijalari asosida pedagogik tadqiqotlar olib boorish
Refleksiv kompetensiya	O'z pedagogik faoliyatini baholash va takomillashtirish

Mazkur kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ularning integrallashuvi bo'lajak o'qituvchining xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorgarlik darajasini belgilaydi.

Metodik kompetensiya o'qituvchining kompetensiyaga yo'naltirilgan darslarni loyihalashi, xalqaro baholash topshiriqlarini milliy o'quv dasturi mazmuni bilan uyg'unlashtirishi hamda o'quvchilarning bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya darsning maqsadi, mazmuni, metodlari va baholash vositalarini yagona didaktik tizim asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

Diagnostik kompetensiya o'quvchilarning funksional savodxonlik darajasini aniqlash, baholash indikatorlarini qo'llash, natijalarni monitoring qilish hamda individual rivojlanish dinamikasini kuzatishni o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiya o'qituvchiga ta'lim jarayonini dalillarga asoslangan holda boshqarish imkonini beradi.

Analitik kompetensiya baholash natijalarini pedagogik va statistik jihatdan tahlil qilish, o'quvchilarning o'zlashtirishidagi muammolarni aniqlash, ularning sabablarini izohlash hamda keyingi o'qitish strategiyalarini ilmiy asosda rejalashtirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiya ta'lim sifati monitoringining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Raqamli kompetensiya elektron baholash platformalari, raqamli ta'lim resurslari, interaktiv test tizimlari va ma'lumotlarni qayta ishlash vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini qamrab oladi. Zamonaviy xalqaro tadqiqotlarning raqamli formatga o'tayotgani mazkur kompetensiyaning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi pedagogning baholash natijalari asosida ilmiy muammolarni aniqlashi, innovatsion metodlarni tajriba-sinovdan o'tkazishi, ularning samaradorligini baholashi hamda ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya uzluksiz kasbiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Refleksiv kompetensiya pedagogning o'z kasbiy faoliyatini tanqidiy tahlil qilishi, mavjud yutuq va kamchiliklarni baholashi, o'z-o'zini rivojlantirish strategiyasini belgilashi hamda kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirib borishini ta'minlaydi. Aynan refleksiya pedagogning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorgarlik alohida bilim yoki ko'nikmalar yig'indisi emas, balki metodik, diagnostik, analitik, raqamli, tadqiqotchilik va refleksiv kompetensiyalarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan kompleks kasbiy tayyorgarlik tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorgarlik bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois pedagogik oliy ta'lim muassasalarida mazkur yo'nalishdagi tayyorgarlik tizimli, uzluksiz va kompetensiyaga yo'naltirilgan metodik tizim asosida tashkil etilishi lozim. Bunday tizim nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda refleksiv kasbiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi ^[9].

Birinchidan, xalqaro baholash dasturlarining mazmuni pedagogik ta'limning barcha bosqichlariga izchil integratsiyalashishi zarur. Mazkur jarayon alohida fan joriy etish bilangina cheklanmasdan, boshlang'ich ta'lim metodikasi, pedagogika, pedagogik diagnostika, ta'lim texnologiyalari, baholash nazariyasi va amaliyoti fanlari mazmuni bilan uzviy bog'langan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Fanlaro integratsiya xalqaro baholash konsepsiyalarini yaxlit pedagogik tizim sifatida o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, tayyorlash jarayonida nazariya va amaliyotning uzviyligi ta'minlanishi lozim. Talabalar xalqaro baholash topshiriqlarini tahlil qilish, ularning tuzilishini o'rganish, baholash mezonlarini qo'llash, topshiriqlarni milliy o'quv dasturi mazmuniga moslashtirish hamda mustaqil ravishda kompetensiyaviy topshiriqlarni ishlab

chiqish tajribasiga ega bo'lishlari zarur. Ayniqsa, PISA topshiriqlaridagi hayotiy vaziyatlar, PIRLS matnlari hamda TIMSSning mantiqiy-amaliy masalalarini metodik jihatdan tahlil qilish bo'lajak o'qituvchilarda xalqaro baholash madaniyatini shakllantiradi.

Uchinchidan, ta'lim jarayonini tashkil etishda faol o'qitish metodlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro baholash dasturlari reproduktiv bilimlarni emas, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoni hal etish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini baholashi sababli, o'quv jarayonida muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, hamkorlikda o'qitish, tadqiqotga asoslangan ta'lim (Inquiry-Based Learning), mikrodars (microteaching), reflektiv tahlil hamda amaliy treninglardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Mazkur metodlar talabalarning nafaqat bilimlarini, balki metodik fikrlashi va kasbiy mustaqilligini ham rivojlantiradi ^[5].

To'rtinchidan, bo'lajak o'qituvchilarning funksional savodxonlikni rivojlantirish metodikasini puxta egallashlariga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Xalqaro baholash dasturlarining asosiy obyekti bilimning hajmi emas, balki undan turli hayotiy vaziyatlarda samarali foydalanish darajasi hisoblanadi. Shu sababli talabalar darslarni kompetensiyaga yo'naltirilgan holda loyihalash, fanlararo integratsiyani ta'minlash, ochiq javobli topshiriqlar tuzish, muammoli vaziyatlar yaratish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini egallashlari lozim.

Beshinchidan, raqamli ta'lim muhitidan foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligining muhim komponentiga aylanishi zarur. Elektron baholash platformalari, interaktiv ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalari hamda raqamli diagnostika tizimlaridan foydalanish xalqaro tadqiqotlarda qo'llanilayotgan zamonaviy baholash formatlariga moslashish imkonini beradi. Raqamli vositalar orqali baholash natijalarini qayta ishlash, vizuallashtirish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish ham o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Oltinchidan, reflektiv yondashuv tayyorlash tizimining ajralmas qismi bo'lishi lozim. Talabalarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish, elektron portfoliolar yuritish, o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash hamda reflektiv kundaliklardan foydalanish ularda kasbiy o'sishga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantiradi. Refleksiya pedagogga o'z faoliyatini tanqidiy baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Yettinchidan, pedagogik amaliyot xalqaro baholash dasturlarini o'zlashtirishning asosiy bosqichi sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Amaliyot davomida talabalar PISA, PIRLS va TIMSS formatidagi topshiriqlar asosida dars ishlanmalarini ishlab chiqishlari, sinov mashg'ulotlarini o'tkazishlari, o'quvchilar faoliyatini xalqaro mezonlar asosida baholashlari hamda olingan natijalarni tahlil qilishlari zarur. Bunday faoliyat nazariy bilimlarning real pedagogik vaziyatlarda qo'llanilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashda pedagogik hamkorlik muhitini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Professor-o'qituvchilar, maktab amaliyotchilari, metodistlar va xalqaro ekspertlar ishtirokidagi seminarlar, mahorat darslari, ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda metodik treninglar bo'lajak pedagoglarning kasbiy dunyoqarashini kengaytiradi va ilg'or tajribalarni o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Yuqoridagi metodik yondashuvlarni umumlashtirish asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning quyidagi tamoyillari ajratib ko'rsatildi:

- kompetensiyaga yo'naltirilganlik;
- nazariya va amaliyot integratsiyasi;
- fanlararo uzviylik;
- diagnostik va reflektiv yondashuv;
- raqamli transformatsiya;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish;
- xalqaro tajriba ochiqlik.

Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan metodik tizim bo'lajak pedagoglarda xalqaro baholash dasturlarini tushunish, topshiriqlarni ishlab chiqish, funksional savodxonlikni rivojlantirish, ta'lim natijalarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda zamonaviy baholash texnologiyalaridan samarali foydalanishga oid kasbiy kompetensiyalarni kompleks ravishda shakllantiradi ^[6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy tahlillar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlash zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Xalqaro baholash dasturlarining kompetensiyaviy mohiyati pedagoglardan nafaqat fan mazmunini chuqur bilishni, balki



funksional savodxonlikni rivojlantirish, diagnostik baholashni tashkil etish, natijalarni tahlil qilish hamda ulardan pedagogik qarorlar qabul qilishda samarali foydalanish kompetensiyalarini ham talab etadi.

Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarda xalqaro baholash dasturlari bo'yicha nazariy bilimlar nisbatan shakllangan bo'lsa-da, kompetensiyaviy topshiriqlarni loyihalash, baholash natijalarini tahlil qilish hamda raqamli baholash vositalaridan foydalanishga oid amaliy ko'nikmalarni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Shu bois pedagogik oliy ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlarini kompetensiyaga yo'naltirilgan, integrativ va amaliyotga asoslangan metodik tizim asosida o'qitish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash uchun zarur bo'lgan metodik, diagnostik, analitik, raqamli, tadqiqotchilik va refleksiv kompetensiyalar yagona kasbiy kompetensiyalar tizimi sifatida tizimlashtirildi hamda ularni shakllantirishning metodik yo'nalishlari ilmiy asosda yoritildi. Mazkur yondashuv pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish hamda milliy ta'lim tizimining xalqaro baholash tadqiqotlaridagi natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avazova D.E. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent, 2024. - 154 b.
2. IEA. PIRLS 2021 Assessment Framework. - Chestnut Hill, MA: Boston College, 2020. - 232 p.
3. IEA. TIMSS 2023 Assessment Frameworks. - Amsterdam: International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), 2024. - 312 p.
4. Shulman L.S. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform // Harvard Educational Review. - 1987. - Vol. 57, No. 1. - P. 1-22.
5. Darling-Hammond L. Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs. - San Francisco: Jossey-Bass, 2006. - 448 p.
6. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. - Paris: OECD Publishing, 2023. - 296 p.
7. OECD. PISA 2022 Results. Volume I: The State of Learning and Equity in Education. - Paris: OECD Publishing, 2023. - 364 p.
8. Turdibayev D.X. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Guliston, 2024. - 134 b.
9. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. - Paris: UNESCO Publishing, 2021. - 186 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.